

**MA'NAVIY-AXLOQIY VA ESTETIK MAZMUNDAGI FOLKLOR  
QO'SHIQLARINING PEDAGOGIK JIHATLARINING AHAMIYATI**

**Egamov Oxunjon Saidovich**

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti

Musiqi ta'lifi va san'at mutaxassisligi I bosqich magistranti

**Nurullayev F.G.**

p.f.f.d (PhD) dotsent, BuxDPI

**Annotatsiya:** Maqolada ma'naviy, axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlarining pedagogik jihatlarining ahamiyati, ular mazmun-mohiyatini tavsiflovchi asosiy omillar, tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berishga yo'naltirilgan uslubiy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Folklor qo'shiqlari; mavususmiy qo'shiqlar; yalinchoqlar; axloqiy-esetik tarbiya.

**Аннотация:** Статья посвящена педагогическое сущности песни фольклора, основы их содержание и дано методическое рекомендации раскрытие воспитательное возможности.

**Ключевые слова:** Песни фольклора; периодические песни; упрощенные песни; нравственно-эстетическое воспитание.

**Abstract:** The article is devoted to the pedagogical essence of folklore songs, the basics of their content and methodological recommendations are given for the disclosure of educational opportunities.

**Key words:** Folklore songs; periodic songs; simplified songs; moral and aesthetic education.

Biz bilamizki har qanday demokratik jamiyat qurish prinsiplari tizimida umuminsoniy qadriyatlar, har bir millatning milliy an'analari, urf-odatlari, madaniyati, san'ati va milliy merosi alohida ahmiyat kasb etadi. Bu tizimda milliy merosning axloqiy-estetik mazmunidagi folklor qo'shiqlari salmoqli o'rinn egallaydi. Zero, Sharq allomalarining falsafiy-pedagogik g'oyalari, ilmiy-nazariy qarashlarida yosh avlodni axloqiy-estetik kamolotida muhim manba bo'lgan o'ziga xos harakat, intilishni vujudga keltiruvchi vazifasini o'tovchi ta'limalar mavjud bo'lib, undan bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish uchun uning pedagogik mazmun-mohiyatini zamonaviy talqinda taqdim etish talab etiladi. Axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlarini tarixiy yondashuv asosida falsafiy-pedagogik jihatdan talqin etish, umuman pedagogika va musiqa faniga yangicha yondashish imkonini beradi.

Xalq pedagogikasi zamirida, shu jumladan, folklor qo'shiqlari zamirida komil inson haqidagi, umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatning gumanistik merosi haqidagi g'oyalari mavjud bo'lib, ularni umumlashgan holda taraqqiy parvar milliy qo'shiqlar tarzida talqin etish mumkin. Folklor qo'shiqlar vositasida yosh avlodni tarbiyalash, xususan, ularni axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalab borish ijtimoiy muloqot, qo'shiq ijrochiligidagi faoliyat, ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Folklor qo'shiqlarining ta'lim-tarbiyaga oid mohiyatini talqin etish uning o'ziga xos mazmun-mohiyatini falsafiy jihatdan anglashdan boshlanadi. Chunki folklor qo'shiqlarini o'ziga xos mazmun-mohiyatini falsafiy jihatdan anglash pedagogikaning metodologik asosi sifatida masalani keng ma'noda tahlil etish, tasavvur qilish va har tomonlama baholash imkonini beradi. Aynan masalaga falsafiy yondashuv folklor qo'shiqlarining yuzaga kelishi va rivojlanishining umumiyl ijtimoiy-tarixiy jihatlarini tavsiflash, mazmun-mohiyatini tafakkuriy qirralarini ochish, folklor qo'shiqlarining zamiri, asosini tashkil etuvchi g'oyalarni aniqlash imkonini beradi.

Axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlarining pedagogik mohiyatini aniqlashda masalaga musiqiy ta'lim-tarbiya nuqta nazardan yondashishi ham muhim omil hisoblanadi.

Chunonchi, bunday yondashuv musiqiy ta'lim-tarbiya nazariyalari va amaliyotining me'yoriy hujjatlariga mos tushmasligi mumkin bo'lgan xususiyat – ommaning folklor qo'shiqlariga oid ijodiyoti namunalarini har tomonlama o'rganishga yo'l ochib beradi. Masalaga madaniyatshunoslik nuqta nazardan yondashuv esa folklor qo'shiq san'atining axloqiy-estetik tarbiyaga yo'naltirilgan me'yoriy mezonlar nuqta nazardan tadqiq etish imkonini beradi. Bu yondashuvlarning barchasi uchun bosh metodologik yondashuv – millat madaniyati, axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlarini, qolaversa millatning ma'naviy xazinasinin bosqichma-bosqich yuzaga kelishini ochib berishga qaratilishi lozim. Bu, o'z navbatida, musiqa pedagogikasining zamonaviy vazifalari yo'nalishlarini ham belgilab beradi.

Xalqning ijtimoiy-tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, turli davrlarda folklor qo'shiqlarga, ma'naviy qadriyatlarga turlicha qarashlar bo'lsa-da, jamiyatning ma'naviy madaniyatining ajralmas qismi - axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlar barkamol shaxs tarbiyasiga yo'naltirilgan asosiy vazifa sifatida qaralgan. Milliy folklor qo'shiqlarning mazmun-mohiyati ham mana shu jihat bilan tavsiflanadi.

Axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlarning pedagogik mohiyati o'zida ommaning musiqiy-estetik bilimlari hamda tajribasini mujassam etgan xalq pedagogikasining tadqiqot predmeti ekanligi bilan ham tavsiflanadi.

Axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlarning pedagogik mohiyatini aniqlashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, unda belgilangan qat'iy qonuniyatlar, umumlashtirilgan musiqiy bilimlar tizimi, aniq ilmiy terminlar mavjud emas. Axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlar tom ma'noda xalq pedagogikasi, hamma uchun tushunarli bo'lgan o'zga xos ta'limotdir.

Axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlar mazmun-mohiyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar sirasiga kiruvchi omillardan ularning tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlardan kelib chiqqan holda muayan davr hamda jamiyatning o'zaro munosabatini aks ettirishini alohida ko'rsatish mumkin.

Axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlarning yana bir tarbiyaviy qudrati shundaki, unda muhim tarbiyaviy masalalarni hal etishga yo'naltirilgan ijtimoiy, pedagogik va psixologik mazmun mavjud. Shularga ko'ra aytish mumkinki, she'riyat, musiqa va ijrochilik natijalari sifatida folklor qo'shiqlarinig tarbiyaviy imkoniyatlari juda katta. Zero, folklor qo'shiqlari boshqa san'at turlari singari voqelikning estetik in'ikosidir. Chunki har qanday folklor qo'shig'ida voqelikning biror tomonini estetik va ma'naviy-axloqiy jihatdan baholash yaqqol yoki yashirin holda mavjud bo'ladi.

Axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlari o'z tabiatiga ko'ra emosionaldir. Shuning uchun u inson hissiyotiga ijobiy ta'sir etib, zavqlanishni, muayyan baholash taassurotini paydo qiladi. Axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlarining tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega ekanligining yana bir asosiy jihatni uning matnida o'z ifodasini topadi. Folklor qo'shiqlar matnida ijobiy xislatlarning ulug'lanib, salbiy illatlarning qaralanishi o'ziga xos mos musiqiy ohanglar bilan uyg'unlashib, inson hissiyotiga ijobiy ta'sir etadi va natijada u estetik tarbiyaning qudratli vositalaridan biriga aylanadi. Musiqa har qanday folklor qo'shig'inining estetik ta'sirini kuchaytiradi. Bu o'z navbatida, ijrochilarini ham, tinglovchilarini ham birday tarbiyalashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Folklor qo'shiqlaridagi she'riy misralar, usul, sehirli ohanglar bilan o'zaro uyg'unlashishi natijasida undagi mazmun-mohiyat inson qalbida ezzulik va go'zallik hissiyotlarin uyg'otadi. Shularga ko'ra aytish mumkinki, folklor qo'shiqlaridan, ularning ma'naviy va axloqiy-estetik tarbiya imkoniyatlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish yaxshi samara beradi. Shu o'rinda alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlardan biri shundaki, folklor qo'shiqlaridan axloqiy-esetik tarbiyada foydalanilganda uning tarbiyaviy to'g'ri

hisobga olish kerak. Ya’ni ularni tinglovchi tomonidan to‘g’ri idrok qilishi uchun aynan tarbiyaviy imkoniyatiga ega bo‘lgan namunalarini muayyan pedagogik mezonlar asosida sinchiklab tanlab olish kerak. Tanlab olingan folklor qo‘shiqlarining mazmun-mohiyati haqida tinglovchiga tushunchalar berish, ya’ni ularning yaratilishi, ijro yo‘li, usullari, mashhur ijrochilar, ijodkorlari, g‘oyaviy-badiiy mazmuni haqida imkon qadar ma’lumotlar berishga jiddiy e’tibor qaratish lozim.

O‘zbek xalqi tomonidan ijro etib kelinayotgan folklor qo‘shiqlar tahlili shundan dalolat beradiki ular mazmun-mohiyatida asosan insoniy sifatlar tarannum etiladi. Aynan shu sifatlar avvalo axloqiy-estetik tayyorgarlik, daraja, madaniyat ko‘لامи asosida tarkib toptiriladi. Shuning uchun ham folklor qo‘shiqlari vositasida yoshlarni axloqiy-estetik tarbiyalash bugungi kunda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotganlar tomonidan pedagogik muammo sifatida tadqiq etilmoqda. E’tiborli tomonlaridan biri shundaki, kishilar turmush tarzi, hayotiy marosim va urfodatlari bilan bog‘liq folklor qo‘shiqlari ham yoshlarni axloqiy-estetiak tarbiyalashda, ularni o‘zbek xalqining o‘tmish hayotini chuqur bilish, his qilish, tasavvurlarini kengaytirishda beqiyos ahamiyat kasb etishi ayondir. Chunki bunday qo‘shiqlarning asosiy tarbiyaviy xususiyati hayotning ma’lum bir parchasini aks ettirishda, qudratli ta’sir etuvchi kuchga ega ekanligidir.

Folklor qo‘shiqlari xalqning o‘z-o‘zinigina emas, balki bolalarning ham ma’naviy, axloqiy estetik jihatdan shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita vazifasini bajarib kelmoqda. Bolalar folklor qo‘shiqlari kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o‘zaro uyg‘unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og‘zaki ijodiyotining o‘ziga xos tarmog‘idir. Folklor qo‘shiqlari bolalarni tabiatga muniosabatlarini shakllantirish, tabiatdagi o‘zga xos go‘zallikni ko‘rish, his etishda muhim rol o‘ynagan. Ota-onalar farzandlarida tabiatga nisbatant to‘g’ri muniosabatlarni shakllantirish va shular orqali axloqiy-estetik tarbiyani amalga oshirib borishda har doim ham faol ishtirot etib kelganlar. Buning natijasida bolalarning yil fasllari – bahor, yoz, kuz, qish mavsumlari bilan bog‘liq qo‘shiqlari yuzaga kelgan. Mavususmiy qo‘shiqlarning aksariyati ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot taqazosiga ko‘ra kattalar repertuaridagi mavqeini yo‘qotib bolalar repertuarida o‘z o‘rnini saqlab qolgan. Shunday qo‘shiqlardan biri – “Boychechak” bo‘lib u bolalarning marosim qo‘shiqlari turkumidan joy olgan.

Bolalar erta bahorda boychechaklarni ko‘rishlari bilanoq undan guldstalar yasaganlar va tolxivchinlarga shodalar bog‘lab, gulchambar qilib boshlariga kiyganlar. “Boychechak” qo‘srig‘ini kuylab turib esa bir hovlidan boshqa hovliga o‘tib boshlariga kiyib olgan gulchambarlarini uy egalariga ularshgan hamda bahor kelganligi bilan ularni, shuningdek, ota-onalarini tabriklaganlar. E’tiborli tomoni shundaki bolalardan biri qo‘shiqning asosiy to‘rtlik qismini yakkaxon ovozda baralla kuylagan, qolgan bolalar esa naqorat qismida jo‘r bo‘lib xor shaklida ijro etganlar:

Boychechagim boylandi,

Qozon to‘la ayrondir.

Ayronigdan bermasang,

Qozonlaring vayrondir.

Qattiq yerdan qazlab chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechakni tutdilar,

Tut yog‘ochga osdilar.

Qilich minan chopdilar,

Baxmal minan yopdilar.

Bolalar qo'shiqni aytib tugatganidan so'ng uy egalari ularga sovg'a-salomlar berishgan. Berilgan sovg'a-salomlar o'zaro o'rtada bo'lingan va birgalikda mehmonnavozlik qilishgan.

Bolalarni axloqiy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, folklor qo'shiqlari turkumiga kiruvchi "Yalinchoqlar" ham tabiat hodisalariga aloqador mavsumiy marosim qo'shiqlardir. Professor O.Safarov yalinchoqlar haqida so'z yuritib, ularni ibtidoiy animistik qarashlar zamirida vujudga kelgan tabiat hodisalariga aloqador deb hisoblayda va "Ular qachonlardir kattalar repertuarida yuzaga kelganlar"-deb e'tirof etadi. "Biroq - deydi olim – davrlar o'tishi bilan animistik e'tiqod ham so'na borgan, natijada unga daxldor marosim ham so'ngan. Lekin shu marosimning verbal qismi bo'lган aytim – qo'shiqlar ... animistik mohiyatini yo'qota borib ... transformatsiyaga uchragan holda bolalar repertuariga o'tib yashay boshlagan". Shunday qo'shiqlardan biri – "Oftov chiqdi olamga" qo'shig'i bolalarni sevimli qo'shig'i sifatida ular tomonidan katta qiziqish bilan kuylangan. Qish oxirlab, iliq kunlar boshlanishi va bo'lutlar ortidan quyosh o'z nurini tarqata boshlashini ko'rgan bolalar sakrab-sakrab, hajihatlik bilan ushbu qo'shiqni xor bo'lib kuylaganlar:

Oftob chiqdi olamga,  
Yugurib bordim xolamga.  
Xolam: - Ana yer, - dedi,  
Borib o'tin ter, - dedi.  
O'tin terdim bir quchoq,  
Non yopdi o'choq-o'choq.  
Menga berdi yelkaday,  
O'ziga oldi g'ilakday.  
Otib urdim eshikka,  
Boshim tegdi teshikka.

Qo'shiq matnidan ayon bo'ladiki o'tmishda ajdodlarimiz quyoshga sig'inib yashaganlar. Geradodning ma'lumotiga ko'ra qadimda massagetlar chopqir otlarini qurban qilib quyosh chiqishi marosimlarini uyuşhtirganlar. To'maris esa quyosh nomi bilan qasamyod qilgan. Bu xildagt e'tiqodlar davrlar o'tishi bilan so'na boshlagan, natijada marosimlar ham yo'qala boshlagan. Lekin bolalarning qish mavsumida o'ynaydigan o'yinida kuylanadigan yalinchoq shaklidagi turi saqlanib qolgan.

Umuman olganda, folklor qo'shiqlari tarkibiga qo'shiqchilik san'atining bir necha turlari kiradi, ularni bir-biridan farqlarini ajratib olmoqlik anchagina bilim va tushunchani talab qiladi. Ularning har biri o'ziga xos ijrochilik yo'li, uslubi, xarakteri, kompozision qurilish va nazmiy xususiyatlari ega. Folklor qo'shiqlari vositasida axloqiy-estetik tarbiya berish jarayonida ushbu xususiyatlarni e'tiborga olish pedagogik talablardan hisoblanadi.

Folklor qo'shiqlarini o'quvchi-yoshlar ongli ravishda tinglab, o'rganib, o'zları ijro etishlari, undan ta'sirlanib estetik zavq olishlari va axloqiy xislatlarga ega bo'lishlari uchun qo'shiq so'zlarining tushunarli bo'lishi, ulardagи o'zaro farqlarni ajrata olishlik, musiqiy ijro etilishining yoqimli bo'lishi talab etiladi.

Axloqiy-estetik mazmundagi folklor qo'shiqlarining yuqori darajadagi tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ta'minlash eng muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Folklor qo'shiqlaridan estetik zavq olish, ularni go'zal hissiyotlar olamiga olib kirishda faqat mashg'ulotlar emas, balki shu bilan birga o'rganilayotgan folklor asarlarini ilhom bilan va to'laqonli ijro etishlari muhim jihatlardan biridir. Folklor qo'shiqlarini tarbiyaviy imkoniyatlarini ochish, tanlab olish jarayonida ularning axloqiy-estetik jihatlarini e'tiborga olish, badiiy so'z va musiqiy tovushlvr vositasida ifodalangan obrazlarini tahlil qilish, g'oyaviy mazmun-mohiyatini idrok etish, ifodali usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1. Akbarov I.A. Uzbekskiy muzikalnyy folklor. T.: O'zdavnashr, 1974. – 114 s
2. 2. Alaviya M. O'zbek folklor qizshiqlari. T.: O'zdavnashr, 1959. – 114 b.
3. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part IIIISSN 2056-5852.
4. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
5. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
6. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
7. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
8. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning musiqiy faoliyati. THE MULTIDISCIPLINARE JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, VOLUME-3, ISSUE-4,ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,2023-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2023, 14-19.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
10. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-sod. Buxoro. Б.175-180.
11. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
12. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139.
13. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
14. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
15. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
16. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children.European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 . Accepted 14 May2022.

17. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
18. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.
19. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// O’zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.
20. Нуруллаев Ф.Г., Музикальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
21. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
22. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612. Accepted 14 May2022.
23. Nurillaev F.G. Results of Experimental Work on Teaching Bukhara Folk Songs in Music Education and their Effectiveness. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy.P.106-109.Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
24. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
25. **Nurillaev Farrukh Gaynullaevich**- The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. European Chemical Bulletin (Scopus-Q3) ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996
26. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.589-595.
27. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы Steam// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.595-602.
28. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, J-2022
29. Nurullayev F.G. Rustamov F.T. Education Of A Child By Music In The Early Period Of Life. Spectrum Journal of Innovation Reforms and Development, volume 22,December2023,ISSN(E):2751-1731.